

XORIY DAVLATLARINING FUQAROLARNING JAMOAT TARTIBINI SAQLASHDA ISHTIROKINI MA'MURIYHUQUQIY TARTIBGA SOLINISHINING ILG'OR TAJRIBASI

Azimov Umid Gafurovich

Milliy gvardiya Kashkadare viloyati buyicha boshkarmasi boshligi polkovnik

Annotatsiya:

Ushbu maqolada fuqarolarimizning jamoat tartibini saqlashdagi ishtiroki qanchalik muhim ahamiyat kasb etishi ko'rsatilgan bo'lib bunda davlatimiz tomonidan fuqarolarimiz ishtirokini rag'batlantirishga doir amalga oshirilgan choratadbirlari doirasida chiqarilgan qarorlar keltirib o'tilgan. Shuningdek, xorijiy tajriba asosida boshqa davlatlarning jamoat tartibini saqlashdagi fuqarolar ishtirokini ta'minlashning ma'muriy huquqiy tartibga solinishi aniq huquqiy asoslar bo'yicha yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: xorijiy tajriba, fuqarolarni rag'batlantirish, pul mukofoti, "whistleblowing", "fosh etuvchi", jamoatchilik ishtiroki.

Bugungi kundagi rivojlanayotgan zamonda davlatimizning farovon hayoti uchun fuqarolarimizning jamoat tartibini saqlashdagi ishtirokini ta'minlash oldimizdan turgan dolzarb masalardan biridir. Chunki biz jamiyatning bir qismi bo'lgan holda, unga ta'sir qilishimiz, rivojlanishida ishtirok etishimiz va farovonligiga hissa qo'shishimiz mumkin. Shuning uchun fuqarolik amaliyoti - jamiyatimizda faol rol o'ynash amaliyoti sifatida ham tushuniladi. Bunday ishtirok etish bizning mahallamizda, rasmiy yoki norasmiy ijtimoiy guruhda, mamlakatimizda yoki butun dunyoda bo'lishi mumkin. Ming afsuslar bo'lsinki, qonun hammaga barobar bo'lishi kerak deymizu, lekin ko'pincha bunga o'z hissamizni qo'shgimiz kelmaydi. O'zimiz guvoh bo'lib qolgan huquqbuzarlik haqida tegishli organlarga xabar berishga, xatto u jinoyat bo'lsa ham, o'zimizcha "or" qilamiz. Buni "sotqinlik" va yana bir balo so'zlar bilan nomlab olgan huquqbuzarlar, jinoyatchilarga fikran ergashayotganimizni o'zimiz ham sezmaymiz. Aslida, har qanday mamlakatda huquqbuzarliklarni oldini olish va bartaraf qilishda nafaqat davlat organlari, balki har bir fuqaroning ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Zero tariximizning buyuk olimlaridan biri bo'lmish Aristotel aytganidek "Yaxshi inson va yaxshi fuqaro bo'lish har doim ham bir xil emas".

Bundan tashqari davlatimiz qonunchiligida mamlakat mustaqilligini hamda hududiy yaxlitligini, xalqimizning tinch hayoti va mustaqillikni mustahkamlash yo'lidagi bunyodkorlik va mehnatini himoya qilish va yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida mamlakat fuqarolari uchun umumiy harbiy majburiyat

joriy etilishi belgilangan. Huquqbuzarlik haqida oddiy aholi tomonidan xabar berilishining eng yaxshi tomonlaridan biri shuki, bu holatda tegishli organ huquqbuzarlik sodir etgan fuqaroni, u kim bo'lishi va mansabidan qat'iy nazar, jazoga tortishga majbur bo'ladi. Ya'ni, tanishbilishchilik qilib jazodan qutulib ketish ehtimoli juda ham past. Buni yo'l harakati xavfsizligi qoidalarini buzganlar misolida ko'rib turibmiz. Shu sababli, so'nggi yillarda, xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda ham ayrim sohalarda huquqbuzarliklar haqida xabar bergan fuqarolarni rag'batlantirish mexanizmi joriy etildi.

Milliy qonunchiligimizning bir qator normativ huquqiy hujjatlarida jinoyat to'g'risida xabar berganlik uchun fuqarolarni rag'batlantirish masalasi ko'zda tutilgan.

Xorijiy mamlakatlarda davlat va xususiy sektorlarida turli xil jinoyatchilik, huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni fosh qilish maqsadida fuqarolarni rag'batlantirish uslubidan ham keng foydalaniladi. AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Kanada va boshqa davlatlar qonunchiligida ham korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali mexanizmi sifatida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan shaxslarni rag'batlantirish tartibi belgilangan bo'lib, bundan tashqari, bunday mamlakatlar qonunchilik tizimida fuqarolarning jamoat tartibini saqlashdagi ishtiroki huquqiy tartibga solingan.

Xususan, quyidagi davlatlarda ixtiyoriy xalq otryadlarining jamoat tartibini saqlashda ishtirokini tarixan rivojlanib kelganligini ko'rishimiz mumkin: Buyuk Britaniyada: buyuk Britaniyada tartibni saqlash uchun mas'ul bo'lgan birinchi ko'ngillilar XI asrda paydo bo'lgan va XIII asrda ularning huquqlari va majburiyatlari allaqachon qonun bilan mustahkamlangan. Keyingi asrlarda ixtiyoriy tartibni saqlovchilar instituti rivojlanib, o'zgartirildi. Ayni paytda mamlakatda ixtiyoriy politsiya (maxsus Konstabulary) mavjud bo'lib, uning xodimi 18 yoshdan oshgan har qanday fuqaro bo'lishi mumkin. U politsiya xodimlarining umumiy talablariga javob berishi va maxsus tayyorgarlik kursidan o'tishi kerak.

Birinchidan, normativ-huquqiy hujjatlar ierarxiyasini hisobga olgan holda, Rossiya va Qozog'istonda fuqarolarning ijtimoiy tartibni himoya qilishda ishtirokini tartibga soluvchi Qonunchilikshunga o'xshash tizim bo'yicha ko'rib chiqilayotgan davlatlarda Eno:

- 1) asosiy konstitutsiyaviy normalar va tamoyillar;
- 2) fuqarolarning huquqni muhofaza qilishda ishtirok etish huquqini amalga oshirish bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri jamoat munosabatlari tartibga solinadigan maxsus qonunlar;

3) boshqa tartibga solish predmetiga ega bo'lgan, ammo shu bilan birga tartibga soluvchi boshqa qonunlar fuqarolarning jamoat tartibini himoya qilishda yordam berishning alohida jihati, shu jumladan ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslar;

4) qonunlarni bajarish uchun chiqarilgan idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar va fuqarolarning umumiy tartibni himoya qilish bo'yicha tashkil etilishi va faoliyatining ayrim masalalarini aniqlashtirish;

5) fuqarolarning qonun va tartibni ta'minlashda ishtirok etishining ayrim jihatlarini tartibga soluvchi mintaqaviy va mahalliy (shahar) normativ - huquqiy hujjatlar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Ichki ishlar organlari tomonidan taqdim etilgan davlat bilan jamoatchilik hamkorligining keng tarqalgan shakllaridan biri bu fuqarolarning jamoat tartibini himoya qilishda ishtirok etish institutidir. Uning ishlash samaradorligi ko'p jihatdan qonun hujjatlarida tartibga solish darajasiga va bunday ishtirok etishning asosiy tushunchalari, tamoyillari, shakllarini, huquqni muhofaza qilishda ishtirok etadigan shaxslarning maqomini, shu jumladan kafolatlar, imtiyozlar va kompensatsiyalarni tartibga solishga bog'liq. Shunga ko'ra, huquqbuzarliklarni oldini olish va bartaraf qilishda jamoatchilik ishtiroki kengaytirilishi, huquqbuzarlik haqida xabar berish rag'batlantirilishi mamlakatda huquqbuzarliklar kamayishiga, qonun ustivorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 2018 yil 20 sentabrdagi 747-son. "Jismoniy va yuridik shaxslarning avtotransport vositalariga o'rnatilgan videoregistratorlar shuningdek, videokuzatuv va tasvirga olish texnika vositalari hamda mobil qurilmalar orqali qayd etilgan huquqbuzarlik holatlari to'g'risidagi videoyozuvlarni qabul qilish, ko'rib chiqish hamda ularni taqdim etgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risida"gi Nizom. <https://lex.uz/>

2. Ўзбекистон Республикасида ҳарбий хизматни ўтаётган ҳарбий хизматчиларнинг жиноий ва моддий жавобгарлигининг назарий-ҳуқуқий асослари (cyberleninka.ru)

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog'liq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4845-sonli Qarori. <https://lex.uz/>